

G'IJJAK QOBUZ BAS CHOLG'USINING YARATILISH TARIXI VA O'ZBEK MUSIQA IJROCHILIGIDA TUTGAN O'RNI

Choriyev Bekzod Bahrom o'g'li

Termiz davlat universiteti "Musiq ta'limi" kafedrasida o'qituvchisi

Bekzodbekbahromovich1995@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada "G'ijjak qobuz bas cholg'usining yaratilish tarixi va o'zbek musiqasida ijrochiligida tutgan o'rni" mavzusi asosida yetarlicha yoritib berishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: Musiqa, san'at, cholg'u, g'ijjak, qobuz, prima, alt, bas, ijrochilik, diapazon, menzura, orkestr, bastakor, kompozitor, ansambl, tenor.

Аннотация. В данной статье предпринята попытка адекватно осветить тему «История создания басового инструмента Гиджак кобуз и его роль в узбекском музыкальном исполнительстве».

Ключевые слова: Музыка, искусство, инструмент, гизжак, кабуз, prima, альт, бас, исполнение, диапазон, менсура, оркестр, композитор, ансамбль, тенор.

Annotation. In this article, an attempt was made to adequately cover the topic "The history of the creation of the Gijjak Qabuz bass instrument and its role in Uzbek music performance".

Key words: Music, art, instrument, gizjak, qabuz, prima, alto, bass, performance, range, mensura, orchestra, composer, composer, ensemble, tenor.

Hozirgi kunda o'zbek musiqasida cholg'u musiqasi muhim o'rin egallab kelmoqda. Xalq cholg'ularimizning betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o'rin tutmoqda. Zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirilgan g'ijjak asosida g'ijjak prima, g'ijjak alt, g'ijjak bas va kontrabaslardan tashkil topgan g'ijjaklar oilasi hamda qobuz prima, alt, bas va kontrabaslardan tashkil topgan qobuzlar oilasi yaratildi. Bu cholg'ular oilasini yaratish jarayonida usta-konstruktorlar simfonik orkestrning kamonli cholg'ularini yaratishdagi ish tajribasiga tayanganlar. Shuning uchun ham simfonik orkestrning kamonli cholg'ular guruhi o'zbek xalq cholg'ulari orkestrning kamonli cholg'ulari guruhining tarkibi bir-biriga o'xshaydi. Ularning sozi, menzurasi, diapazoni, zarblari va ijro uslubi hamda ovoz chiqarish uchun qo'llaniladigan kamoni ham bir xil. Xalqimizning torli-kamonli cholg'ularidan g'ijjaklar oilasi haqida so'z yuritar ekanmiz avvalambor kamonli sozlarning kelib chiqishi va ibtidosi qadimgi Qobuz soziga borib taqaladi. Allomalarning fikricha Qobuz cholg'usi turklarning eng qadimiy musiqiy sozlaridan bo'lib, u haqdagi hikoya va rivoyatlar juda ko'plab uchraydi. Darvesh Ali Changiy o'zining Musiqiy risolasida Qobuzning yaratilishini Sulton Uvays Jaloyir nomi bilan bog'laydi. Tarixiy malumotlarga ko'ra barcha kamonli cholg'ularning yaratilishiga qobuz sozi asos bo'lgan ekan.

1936 yillardan boshlab milliy cholg'ularimizni takomillashtirilganligi sababli musiqiy sozlar oilasi paydo bo'la boshladi. Dutor, rubob, chang va g'ijjaklar oilasi

ham takomillashtirilib kengaytirildi. Shu jumladan g'ijjak bas cholg'usi ham o'zining ohangi va shirali ovozi bilan xalq cholg'ularimiz ichida alohida e'tiborga loyiq. G'ijjak bas cholg'usi haqida gapiradigan bo'lsak bu cholg'uning tarixi haqida ustoz san'atkorlarimiz va musiqashunoslarimiz tomonidan qisqacha ma'lumotlar mavjud. Bazi ma'lumotlarga qaraganda professor A.I.Petrosyans xalq cholg'ularini takomillashtirish jarayonida dastlabki qobuz (qo'buz) qadimiy turk cholg'usi ya'ni torli-kamonchali musiqa cholg'usi ko'rinishidan foydalangan ekan.

1934 yilda Qozoq bastakori, cholg'ushunos olim A.K.Jubanov musiqa cholg'usi, qobuzning turdosh oilasini yaratgan. Qobuzning alt, bas, kontrabas turlari mavjud. Bugungi kunda g'ijjak bas cholg'usi haqida bilmagan, uning mungli, ifodaviy tembiri (ohangi), nafis ovozinin boyligi haqida eshitmagan inson bo'lmasa kerak. Ijrochilar g'ijjak bas cholg'usining kattagina ijro imkoniyatlari, xalq cholg'ulari orkestri va kamer asarlarda, mahalliy davralarda, yakkaxon ijrochilikda ham naqadar betakror ekanligini e'tirof etishadi. Ayniqsa o'zbek xalq kuylarini marog' bilan ijro yetish mumkin. Orkestrda g'ijjak bas asosan orkestr asosi, ya'ni tayanchi hisoblanadi. Eng pastki registr notalarini chaladi. Dutor bas, g'ijjak bas, g'ijjak kontrabas asboblari bilan birgalikda orkestrni ushlab turadigan guruh xisoblanadi. G'ijjak bas (qobuz bas) sinfi Toshkent Davlat konservatoriyasida 1949-yilda tashkil qilingan. G.N.Ivanovning shogirdi X.Tursunov mazkur sinfnin ilk bitiruvchisi bo'lgan. G'ijjak bas cholg'usi asosiy g'ijjakning katta qilib ishlangan turi bo'lib, violonchel vazifasini ham bajaradi. G'ijjak basning torlari kvinta oralig'ida sozlanadi. 4-eng pastki tori katta oktavadagi do notasiga, 3-tor-katta oktavadagi sol notasiga 2-tori kichik oktavadagi re notasiga va 1-tor kichik oktavadagi lya notasiga sozlanadi. G'ijjak basning (qobuz bas) umumiy ovoz xajmi katta oktavadagi do notasidan uchinchi oktavadagi re notasiga qadar. Notalari bas kalitida yoziladi, baland tovushlari skripka va tenor kalitida yoziladi. Tajribali o'qituvchi violonchilist I.I.Shelpukning 1966- yildan g'ijjak bas (qobuz bas) sinfiga rahbarlik qilishi bilan bu sohada mutaxassislar tayyorlash ishi ancha faollashdi. I.I.Shelpukni shogirdlari orasida konkurs sohibi Shohid Qoraboyev (birinchi mukofot) va Yo'ldosh To'laganovlar alohida diqqatga sazovor bo'lganlar. G'ijjak bas cholg'usi uchun ilk yaratilgan asarlar: G.Mushel „Eksprompt” (1961 y.), T. Qurbonov „Eskiz” (1965 y.), N.Zokirov „Sonata-improvizatsiya” (1971 y.), F.Yanov-Yanovskiy „Elegiya” (1973 y.), G.Sobitov „Aylasa” o'zbek xalq kuyi notalashtirilgan (1973 y.) O'zbek xalq kuylaridan „Chaman yalla” „Yolg'iz” „Sharob” va boshqa kuylarni marog' bilan ijro etish mumkin. Bu cholg'u borasida 1960 yildan boshlab hozirgi kunga qadar katta ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan 1970 yilda bo'lib o'tgan Respublika ko'rik tanlovida Xasan Komilov I o'rin, Ozoda Ibragimova III o'rinni egallaganlar. 1980 yilda bo'lib o'tgan tanlovda esa Shohid Qoraboev I o'rin sohibi bo'lgan. 1988 yilda Valijon Qo'ldoshev II o'ringa loyiq deb sanalgan.

1960 yildan 2018 yilga qadar g'ijjak bas cholg'usining taraqqiyoti ancha rivojlanib murakkablashdi. Respublikamizning har bir musiqa o'quv yurtlarida malakali mutaxassislarimiz yosh avlodga ta'lim berib kelishmoqda. Hozirgi kunga

xizmat qilib kelayotgan g'ijjak baschilardan: Ozoda Ibragimova, Zulfiya Xisamiddinova, Saidkarimova D, Qoraboev Shohid, Muhiddinov Bahrom, Safarov Orzubek, Rahimov Abror, Ne'matjonov Jalol, Karimov Inoyat, Nosirov Zuxriddin, Yusupov Begzod, Akbarov Qudrat, Soliev Siyovush, Choriyev Bekzod va boshqalar ish faoliyatlarini o'tab bormoqdalar. Mutaxassislarimizning say harakatlari bilan ijrochilik texnikasi kun sayin rivojlanmoqda. Bu cholg'u asosida ko'plab kompozitorlarimiz tomonidan asarlar yaratilgan. Musiqa tarixida "Ulug'larning ulug'ligi vaqt o'tgan sari oydinlashadi" degan dono naql qayta-qayta takrorlanadi. Ayniqsa cholg'u ijrochiligi san'atida ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida bir qancha asarlarni meros qilib qoldirishgan. Hozirgi kunda ijod qilayotgan ko'plab kompozitorlarimiz tomonidan turli xil janrlarda kamer asarlar, xususan, xalq cholg'ulari uchun maxsus asarlar yaratilmoqda va bu samarali ijod mahsuli o'zbek xalq cholg'ulari orkestri va ansambllarida ijro etilmoqda va bu janrlar noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmida balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. XX asrning 40-50-yillaridan o'zbek musiqa san'atida, ayniqsa ijod va ijroda yangi-yangi qarashlar yuzaga kela boshladi. Musiqaning sehri va jozibasi yanada teranroq va zamon ruhi bilan uyg'unlikda aks ettirila boshlangan. Darhaqiqat, maktab darajasida shakllanib rivojlangan cholg'u yo'llarining bir qator tomonlari mavjud bo'lib, ular aniq bir tugal maqomga ega bo'lgan. Birinchidan ijro repertuari, ya'ni shu uslub doirasida yuzaga kelgan musiqiy namunalari yoki asarlar turkumlari. Ikkinchidan, asarlarning tarkibiy jihatlari va albatta ijrochilikdagi o'ziga xos xususiyatlardir. Ushbu prinsiplarsiz ijrochilikni maktab darajasida tasavvur etish qiyin. Lekin, masalani ikkinchi tomoni, maktab darajasiga erishish uchun vaqt, ijod, ijrochilik amaliyoti asosiy ahamiyat kasb etadi. G'ijjak (qobuz) – bas maxsus sinfida yuqori malakali yetuk sozanda – ijrochi, xalq cholg'ulari orkestri dirijyori, shuningdek orkestr va ansambllar sozandasi shakllanib bormoqda. Binobarin, g'ijjak- bas sinfida tahsil oluvchi talaba kelajakda yuqori malakali mutaxassis, badiiy mahoratli konsert ijrochisi, orkestr sozandasi, yakkanavoz cholg'uchi, qolaversa muallim-murabbiy sifatida shakllanishida o'qituvchi-rahbarning faoliyati nihoyatda kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azatgul Tashmatova "Ijrochilik san'ati tarixi" «Musiqa» nashriyoti Toshkent – 2017.
2. Boboramazonovich, K. O. (2022). CHARACTERISTICS OF THE PERFORMANCE OF PEOPLE IN ALLAH, LAPARS, SPEECH IN THE SURKHAN VOLUME. ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 95-102.
3. URL: <http://www.sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/1517>
4. XO Boboramazonovich, Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2022.
5. URL: https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1BkDoSMAAAAJ&citation_for_view=1BkDoSMAAAAJ:Y0pCki6q_DkC

6. O'zbekistonning janubiy hududi hisoblangan Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatib kelayotgan "Jarqo'rg'on", "Sharshara", "Mahliyo", "Qo'ng'iroq" va "Zevar" folklorenografik jamoalari xususida OB Xakimov, Science and Education, 2022.
7. URL:https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1BkDoSMAAAAJ&citation_for_view=1BkDoSMAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
8. Choriyev, B. (2021). UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI KAMCHILIKLAR VA MUAMMOLAR.
9. URL: <https://scienceweb.uz/publication/2144>
10. Bekzod Bahrom O'G'Li Choriyev (2022). O'zbekistonda xalq cholg'ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko'p ovozli orkestr va ansambllarning tashkil topishi. Science and Education, 3 (4), 776-780.
11. URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-xalq-cholg-ularining-takomillashuv-jarayonlari-hamda-ko-p-ovozli-orkestr-va-ansambllarning-tashkil-topishi>